



O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO`MITASI



O`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2018 yil yanvar-sentabr (dastlabki ma`lumot)

2018 yil yanvar-sentabr oylarida O`zbekiston Respublikasida o`rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 684,5 ming so`mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag`batlantirish xususiyatiga ega to`lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to`lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig`i, ijtimoiy sug`urta va kasaba uyushmasiga to`lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan **22,9** % ga o`sisini ta`minladi.

Yuridik shaxslarda xodimlar soni va ish haqi fondi (2018 yil yanvar-sentabr; qishloq xo`jaligi va kichik tadbirkorlik sub`ektlaridan tashqari)

	Korxonalar va tashkilotlar soni, birlik	Xodimlar soni, ming kishi	Ish haqi fondi, mlrd. so`m	O`rtacha oylik ish haqi, ming so`m
Respublika bo`yicha - jami	58973	2609,5	39562,3	1684,5
<i>shu jumladan:</i>				
Sanoat	603	457,1	10494,9	2550,9
Qurilish	153	44,0	850,5	2148,2
Savdo	437	64,5	986,4	1699,4
Tashish va saqlash	203	115,7	2458,2	2361,2
Yashash va ovqatlanish bo`yicha xizmatlar	155	6,6	72,4	1211,7
Axborot va aloqa	234	29,1	837,3	3196,8
Moliyaviy va sug`urta faoliyati	172	67,2	1943,0	3213,1
Ta`lim	21858	998,2	11461,1	1275,8
Sog`liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish	1414	431,4	4215,4	1085,7
San`at, ko`ngil ochish va dam olish	2186	28,0	406,7	1613,5
Boshqa faoliyat turlari	31558	367,7	5257,3	1588,5


Ish haqi. 2018 yil yanvar-sentabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:



Ta'lim sohasida 21 858 ta muassasada 998,2 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 38,3 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 11461,1 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 29,0 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 275,8 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 17,1 % ga o'sdi.

Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2018 yil yanvar- sentabr; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Toshkent shahrida 1580,1 ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 123,9 %), Jizzax viloyatida 1374,9 ming so'mni (107,8 %) va Toshkent viloyatida 1329,8 ming so'mni (104,2 %) tashkil etgan bo'lsa, Farg'ona viloyatida 1170,2 ming so'mni (91,7 %), Qashqadaryo viloyatida 1176,5 ming so'mni (92,2 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Sanoat iqtisodiy faoliyat turida 603 ta korxonada 457,1 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 17,5 %)ni xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi 10494,9 mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 26,5 %)ni tashkil etgan. Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2550,9 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 28,6 %ga o'sdi.

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2018 yil yanvar- sentabr; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)




Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Toshkent shahrida 3061,3 ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 120,0 %), Qoraqalpog'iston Respublikada 3058,3 ming so'mni (119,9 %), Navoiy viloyatida 3033,8 ming so'mni (118,9 %) va Toshkent viloyatida 2678,1 ming so'mni (105,0 %) tashkil etgan bo'lsa, Namangan viloyatida 1586,1 ming so'mni (62,2 %), Jizzax viloyatida 1683,5 ming so'mni (66,0 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida **1414** ta muassasada **431,4** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 16,5 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **4215,4** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 10,7 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **1085,7** ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 17,7 %ga o'sdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Toshkent shahrida 1298,5 ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 119,6 %), Buxoro viloyatida 1193,3 ming so'mni (109,9 %), Qoraqalpog'iston Respublikada 1187,4 ming so'mni (109,4 %) va Sirdaryo viloyatida 1160,8 ming so'mni (106,9 %) tashkil etgan bo'lsa, Qashqadaryo viloyatida 937,6 ming so'mni (86,4 %), Samarqand viloyatida 1002,2 ming so'mni (92,3 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish
faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi
(2018 yil yanvar- sentabr; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)**




Tashish va saqlash iqtisodiy faoliyat turida **203** ta korxonada **115,7** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 4,4 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **2458,2** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 6,2 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **2361,2** ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 23,7 % ga o'sdi.

Ushbu sohadagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Toshkent shahrida 2868,0 ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 121,5 %), Xorazm viloyatida 2360,2 ming so'mni (100,0 %) tashkil etgan bo'lsa, Andijon viloyatida 1097,7ming so'mni (46,5 %), Samarqand viloyatida 1162,6 ming so'mni (49,2 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Tashish va saqlash faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2018 yil yanvar- sentabr; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)



Hududlar




Moliyaviy va sug'urta faoliyati

iqtisodiy faoliyat turida **172** ta muassasada **67,2** ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,6 %ni) xodim ishlagan bo'lib, ularga hisoblangan ish haqi fondi **1943,0** mlrd. so'mni (jami ish haqi fondidagi ulushi 4,9 %ni) tashkil etgan. Mazkur sohada ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi **3213,1** ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 27,6 % ga o'sdi.

Moliyaviy va sug'urta faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2018 yil yanvar- sentabr; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)




Moliya va sug'urta faoliyati sohasidagi o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Toshkent shahrida 4347,0 ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan 135,3 %) tashkil etgan bo'lsa, Sirdaryo viloyatida 2237,4 ming so'mni (69,6 %), Toshkent viloyatida 2372,2 ming so'mni (73,8 %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.



Respublika bo'yicha 2018 yil yanvar- sentabr oylarida 2017 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati axborot va aloqa sohasida 33,0 %, sanoatda 28,6 %, qurilishda 28,6 %, moliyaviy va sug'ruta faoliyatida 27,6 % kuzatildi.


O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati

(2018 yil yanvar- sentabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)




Iqtisodiy faoliyat turlari

Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2018 yil sentabr oyida **456,3 ming so'mni** tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2018 yil yanvar- sentabr; respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini respublika hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Toshkent shahrida **2363,9** ming so'mni (respublikadagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **140,3** %), Navoiy viloyatida **2214,6** ming so'mni (**131,5** %) va Toshkent viloyatida **1886,2** ming so'mni (**112,0** %) tashkil etgan bo'lsa, Namangan viloyatida **1311,0** ming so'mni (**77,8** %), Samarqand viloyatida **1343,3** ming so'mni (**79,7** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

**O`zbekiston Respublikasi bo`yicha o`rtacha
oylik nominal hisoblangan ish haqi**
(yanvar- sentabr; qishloq xo`jaligi va kichik tadbirkorlik
sub'ektlaridan tashqari, ming so`m)

	2017 yil	2018 yil	O'sish sur'ati, %
O'zbekiston Respublikasi	1370,6	1684,5	122,9
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1301,2	1629,4	125,2
<i>viloyatlar:</i>			
Andijon	1255,9	1541,2	122,7
Buxoro	1368,1	1576,7	115,2
Jizzax	1185,8	1438,0	121,3
Qashqadaryo	1269,6	1522,7	119,9
Navoiy	1858,8	2214,6	119,1
Namangan	1062,2	1311,0	123,4
Samarqand	1096,4	1343,3	122,5
Surxandaryo	1106,5	1354,2	122,4
Sirdaryo	1174,1	1436,2	122,3
Toshkent	1460,3	1886,2	129,2
Farg'ona	1162,6	1368,7	117,7
Xorazm	1130,4	1380,3	122,1
Toshkent sh.	1869,5	2363,9	126,4

Davlat statistika qo'mitasining
Demografiya va mehnat statistikasi boshqarmasi
Nashr uchun mas'ul: **B.Shodiyev**
(71) 230-80-65